

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

1/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

1/2025

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Астанова Г.А.	“Минг бир кеча” ҳикоятларида ҳинд, эрон руҳияти ифодаси	3
Babayev M.T.	Mavlono Jaloliddin Rumi (Balxiy)ning “Masnaviyi ma’naviy” asaridagi masallarda ilon obrazi	8
Ganiyeva O.X.	J.Styuartning “Another april” hikoyasidagi XX asr AQSh realistik hikoyachiligi xususiyatlari tasviri	14
Karimova D.H., Narziyeva D.R.	Aka-uka Grimm ertaklarining tarjima variantlari xususida (“Bir xumcha shovla” ertagi tarjimasi misolida)	18
Ubaydullayeva R.A.	“Ro‘yo yoxud g‘ulistonga safar” romanida ramziylik va uning ifodalanishi	23
Fayziyeva K.A.	“Muhammad hayoti” romanida badiiylik tasviri	29
Bekova N.J., Faxriyeva D.T.	Chingiz Aytmatov asarlarida ayol qismati tahlili (“Alvido, gulsari”, “Birinchi muallim” qissalari asosida)	33
Xudayberdiyeva M.A.	Fitratning adabiy tur va janrlarga munosabati	37
Qodirova N.S.	Adabiy tanqidchilikda davr uslubi masalasi (jadid tanqidchiligi misolida)	41
Dusanova M.X.	Social And Cultural Context In 20th Century English Literature	48
Naimova A.M.	Mifopeya janr xususiyatlari hamda uning badiiy nasrda formatlashuvi	52
Zayniyeva Y.F.	“Boburnoma” dagi izofiy birikmali hayvonot va nabobot nomlarining inglizcha tarjimalari tahlili	57
Gadoeva M.I., Rahmonova J.M.	Sharq va g‘arb madaniyatlarida “yaxshilik” tushunchasi	62
Sa’dullayeva Sh.A.	Rashod Nuri Guntekin romanlarida o‘qituvchilar obrazi	67
Sabirova G.B.	Ota timsolining oilaviy va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyati	71
Nazarova G.P., Sirojeva N.S.	Amerika immigrant janri tarixi	77
Usmonova N.S.	Tez aytish turlari (fransuz tez aytishlari misolida)	82
Shukurova S.O.	An examination of sociological and psychological perspectives on suicide through the works of Émile Durkheim and Zygmunt Bauman	88
Kilicheva M.R.	XIX asr ingliz she’riyatida sharq va islom madaniyati talqini	93
Kodirova S.A.	Ayrim maqollar evolyutsiyasida “Zarbulmasal” maqollarining o‘rni va ahamiyati	99
Рашидова Ф.Р.	Художественный психологизм в творчестве женщин-писательниц викторианской литературы	103
Ахмедова К.А.	Ключевые особенности детских игр узбекского народа	108
Рахимова Н.К.	Баҳоуддин Нақшбанд “Авроди шариф”идаги тасаввуф терминлари таҳлили	112
Нармуратов И.,	Максим Горький – великий представитель	116

XIX ASR INGLIZ SHE'RIYATIDA SHARQ VA ISLOM MADANIYATI TALQINI

Kilicheva Mehriniso Rajabovna,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d (Phd)

Annotatsiya. XIX asr ingliz adabiyotida Sharq tasviri ko'plab she'riyat namunalari o'z aksini topgan. Bu davrda Sharqning ekzotik va mistik obrazlari, uning o'ziga xos madaniyati va urf-odatlarini Yevropa adabiyotida muhim ilhom manbai bo'lgan. Shuningdek, ingliz shoirlari Sharqni ko'pincha sirli va go'zal bir dunyo sifatida tasvirlashgan. Biroq, ayrim hollarda tasvirlar noto'g'ri tushunchalar va tarixiy kontekstda shakllangan stereotiplarga asoslanadi. Ushbu maqolada XIX asr ingliz she'riyatidagi Sharq tasviri va Islom dini haqidagi qarashlarning rivoji tahlil qilinadi. Robert Sauti, Lord Bayron va P. B. Shelli kabi shoirlar o'z asarlarida Sharq madaniyatini va Islomni turli nuqtayi nazarlarda, ko'pincha xurofotga asoslangan stereotiplar asosida tasvirlashgan.

Kalit so'zlar: ingliz she'riyati, Sharq tasviri, mistika, Islom, musulmonlar, madaniyat, stereotiplar, G'arb, tarixiy kontekst, tasvir, adabiyot.

INTERPRETATION OF EASTERN AND ISLAMIC CULTURE IN 19TH CENTURY ENGLISH POETRY

Abstract. In 19th-century English literature, the image of the East was reflected in many poetic works. During this period, the exotic and mystical images of the East, its unique culture and traditions, were an important source of inspiration for European literature. English poets also often depicted the East as a mysterious and beautiful world. However, in some cases, the images are based on misconceptions and stereotypes formed in the historical context. This article analyzes the development of the image of the East and views on the Islamic religion in 19th-century English poetry. Poets such as Robert Southey, Lord Byron and P. B. Shelley depicted Eastern culture and Islam from different perspectives, often based on stereotypes based on superstition.

Keywords: English poetry, image of the East, mysticism, Islam, muslims, culture, stereotypes, West, historical context, image, literature.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВОСТОЧНОЙ И ИСЛАМСКОЙ КУЛЬТУРЫ В АНГЛИЙСКОЙ ПОЭЗИИ XIX ВЕКА

Аннотация. В английской литературе XIX века образ Востока отражен во многих образцах поэзии. В этот период экзотические и мистические образы Востока, его уникальная культура и традиции были важным источником вдохновения в европейской литературе. Также английские поэты часто описывали Восток как загадочный и прекрасный мир. Однако в ряде случаев образы основаны на заблуждениях и стереотипах, сформировавшихся в историческом контексте. В данной статье анализируется образ Востока и развитие взглядов на ислам в английской поэзии XIX века. Такие поэты, как Роберт Саути, лорд Байрон и П.Б. Шелли, изображали восточную культуру и ислам в своих произведениях с разных точек зрения, часто на основе суеверных стереотипов.

Ключевые слова: английская поэзия, восточный образ, мистика, ислам, мусульмане, культура, стереотипы, Запад, исторический контекст, образ, литература.

Kirish. Asrlar davomida Sharq o'zining sirli, jozibasi bilan ingliz ijodkorlarining e'tiborini tortib kelgan. Britaniya imperiyasining mustahkamlanishi va Sharqiy mamlakatlar bilan savdo aloqalarining kengayishi, ingliz adabiyotida Sharqni o'ziga xos tarzda tasvirlashga olib keldi. Ayniqsa, XIX asr ingliz she'riyatida Sharq tasviri, ko'plab poetik asarlarda yoritilgan bo'lib, bu tasvirlar nafaqat estetik jihatdan, balki madaniy va siyosiy nuqtayi nazardan ham ahamiyat kasb etadi. Shoirlar Sharq va uning madaniyati tasvirlarida asosan shiddatli tafovutlarni, o'ziga xos go'zallikni va ko'p hollarda Yevropa jamiyatidan ajratilgan, sirli va ekzotik dunyoni aks ettirishgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XIX asr ingliz she'riyatini tahlil qilar ekanmiz, ingliz shoirlari orasida S. T. Kolerij, P. B. Shelli, T. Mur, L. Bayron va R. Sauti kabi shoirlar Islom va musulmon dunyosiga alohida qiziqish bildirishgani ko'zga tashlanadi. Biroq ularning asarlarida Islom dini va musulmonlarga nisbatan salbiy va noto'g'ri qarashlar shakllanganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xususan, Islom olami ko'pincha xurofotlarga to'la, musulmonlar esa qonxo'r va vahshiy obrazlar sifatida tasvirlangan. Bunday tasvirlar, o'z navbatida, musulmon dunyosiga nisbatan nafratni kuchaytirishda va uning haqiqiy obrazini buzishda muhim rol o'ynagan. Ushbu salbiy munosabatning shakllanishiga 1821–1829-yillarda bo'lib o'tgan Gretsiya-Turkiya urushi katta ta'sir ko'rsatgan. Bu urushda G'arb mamlakatlari Turkiyaga qarshi turgan, shu sababli musulmonlar va Islomga nisbatan manfiy qarashlar kuchaygan.

Tadqiqot metodologiyasi. Robert Sauti, XIX asrda Sharqni tasvirlagan eng mashhur shoirlardan biri sifatida, o'z she'riyatida Islomni tasvirlashga intilgan va uni o'quvchilariga tanitishga harakat qilgan. Jorj Salening Qur'on tarjimasining 1734-yilda birinchi jildi va 1741-yilda oxirgisi nashr etilganidan keyin, Sauti bu muqaddas kitobni o'rganib, musulmon dunyosiga oid o'z tasavvurlarini shakllantirgan. Shuningdek, uning "Thalaba the Destroyer" nomli she'riy dostoni, adabiy tanqidchilar tomonidan shoirning Sharq haqidagi eng mashhur asari sifatida baholanadi. Ushbu she'riy dostonida Sautining Sharqqa, uning afsonalariga va orzulariga bo'lgan chuqur qiziqishi ko'rinadi.

Sautining she'riyati, G'arbda Sharqni tasvirlashda umumiy tendensiyalarni aks ettirgan holda, Sharqni ko'pincha mistik, sirli va idealizatsiyalangan dunyo sifatida taqdim etadi, ammo bu tasvirlar ko'p hollarda G'arb nuqtayi nazaridan shakllangan xato tasavvurlar bilan shakllantirilgan. Robert Sautining "Thalaba the Destroyer" dostoni o'sha davr ingliz she'riyatidagi ko'plab boshqa asarlarda bo'lgani kabi, Islom dini va musulmonlarga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri salbiy munosabatni ifodalamaydi. She'rda tasvirlangan dunyo, umumiy ravishda, xayolparastlik va xurofotga to'la o'lka sifatida namoyon bo'ladi, bu esa Sharqni noto'g'ri tasavvur qilishga olib keladi. Bunday tasvirlar, o'z navbatida, G'arb o'quvchilarining ongiga o'rnatilib, Sharq haqidagi xato tasavvurlarni shakllantirilgan deyish mumkin.

Shoirning "Thalaba the Destroyer" asarida qo'llagan nomlar, joylar va shaxslar Sharq madaniyati va Islom tarixiga bo'lgan chuqur qiziqishini ochib beradi. Sautining she'rida Muhammad (s.a.v), Horun ar-Rashid, Loboba, Oqba, Laylo, Moat, Zaynab, Xavla, Maymuna, Abdaldor, Bag'dod, Bobil kabi ismlar ishlatiladi. Bu nomlar nafaqat shoirning Sharq madaniyati bilan tanishligini, balki uning Islom tarixi bo'yicha bilimini ham namoyish etadi.

"Thalaba the Destroyer"ning dastlabki rivoyatda Talaba ismli musulmon bola haqidagi hikoya taqdim etiladi. She'rda aytilishicha, Talaba Xudo tomonidan sehrgarlarni mag'lub etish uchun tanlanadi. Bashoratga ko'ra, Talaba taqdirga muvofiq ravishda, insoniyatni yomon kuchlardan himoya qilish uchun yuboriladi. Sehrgarlar Talabaning oilasini o'ldiradi, lekin u va uning onasi qochishga muvaffaq bo'ladi. Keyinchalik, Talaba Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning yordamiga murojaat qiladi va uning yordamida yovuz kuchlarni yengishga intiladi. She'rning oxirida Talaba yovuz butni va sehrgarlarning g'orini yo'q qilishga muvaffaq bo'ladi. Bu o'rinda Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning ovozi eshitilib, Talaba undan nima tilashini so'raydi. Talaba o'zining oxirgi vasiyatini Payg'ambar (s.a.v.)ga topshiradi. Asar, Talaba va Muhammad (s.a.v.) o'rtasidagi suhbat bilan yakunlanadi.

*The all-beholding Prophet's awful voice,
"Thou hast done well, my Servant!
Ask and receive thy reward!"*

... ..

*He answered to the Voice,
"Prophet of God,
Holy, and good, and bountiful!
One only earthly wish have I, to work
Thy will, and thy protection grants me that.
Look on this Sorcerer! Heavy are his crimes,
But infinite is mercy! If thy servant
Have now found favour in the sight of God,
Let him be touched with penitence, and save
His soul from utter death."
"The groans of penitence," replied the Voice
"Never arise unheard!
But for thyself prefer the prayer,
The Treasure-house of Heaven
Is open to thy will."
"Prophet of God!" then answered Thalaba,
"I am alone on earth.
Thou knowest the secret wishes of my heart!
Do with me as thou wilt! Thy will is best."*

... ..
*Thalaba knew that his death-hour was come,
And on he leapt, and springing up,
Into the Idol's heart Hilt-deep he drove the Sword.
The Ocean-Vault fell in, and all were crushed.
In the same moment at the gate of Paradise,
Oneiza's Houri-form
Welcomed her Husband to eternal bliss (Einboden 137-8).*

Robert Sauti o'zining "Roderik: Gotlarning oxirgisi" (1814) dostonida Islom va musulmonlarga nisbatan salbiyroq munosabatni ochib beradi. Ushbu she'r, ko'plab adabiy tanqidchilar tomonidan shoirning eng yirik asari deb baholanadi. Doston, asosan, Ispaniya va mavrlar (musulmonlar) o'rtasidagi, aniqrog'i, Islom va nasroniylik o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlarni tasvirlaydi. She'rda voqealar 711-yilda Ispaniyaga moorlarning bostirib kirishi bilan boshlanadi va Roderikning musulmonlar qo'lidan Ispaniyani qaytarish uchun qilingan urushidan keyin rivojlanadi.

Sautining "Roderik" dostonida, ayniqsa, dinning o'rni va musulmonlarga qarshi nasroniylarning birlashishi zarurligi alohida ta'kidlanadi. She'rda Roderikning tushida Masihdan qon ketishini ko'rishi va bu holatni Islomni yengish uchun Masihning chaqirig'i deb talqin qilishi, shoirning dinlararo to'qnashuvlarga nisbatan o'z qarashlarini ko'rish mumkin. Roderikning tushidagi "*U qon oqayotgan Najotkor osilgan xochni ko'rarmidi*" degan satri, shuningdek, she'rning nasroniylik nuqtayi nazaridan shakllanganligini ochib beradi [7;37].

Doston davomida, Sauti Islomni faqat salbiy tomonlari bilan ko'rsatib, musulmonlarni yovuz va xurofotga botgan xalq sifatida tasvirlaydi. Misol uchun, she'rda musulmonlarning ayollarni kanizak qilib olishlari va bolalarini o'ldirishlari kabi amallarni sodir etishi ko'rsatiladi. Bu holat Islom diniy qonunlari bilan mutlaqo zid keladi, chunki Islomda jangchi bo'lmagan erkaklar, ayollar va bolalarni o'ldirish qat'iy man etilgan. Dostonda aytilishicha, musulmonlar tomonidan o'ldirilgan ayolning bolalarining qasosini olish istagi, Roderikdan Ispaniyaning musulmon bo'lmaslardan qaytarilishini so'rashiga sabab bo'ladi. Ayol Roderikdan bolalarining o'ldirilishi uchun qasos olishni va ommaviy qirg'in qilingan aholi uchun butun shaharni qabrga aylantirishni talab qiladi. Bu tasvirlar, shubhasiz, G'arbda musulmonlarga qarshi salbiy tasavvurlarni kuchaytirish maqsadida shakllangan.

Xususan, she'rning yigirma to'qqizinchi baytida ayolning qashshoqligi va qasos olish istagi ochib beriladi, bu esa uning azob-uqubatlaridan chiqqan natija sifatida ko'rsatiladi. Bu bayt, musulmonlarning Islom etikasiga zid ravishda, ayolni va uning bolalarini qasddan zarar yetkazgan holda ko'rsatadi.

... she addrest him, ... there they lie,
Child, Husband, Parents, ... Adosinda's all!
I could not break the earth with these poor hands
Nor other tomb provide, . . but let that pass!
Auria itself is now but one wide tomb
For all its habitants :—
... ye, ye blessed Souls
Of Heroes and of murder'd Innocents,
Oh, never let your everlasting cries
Cease round the Eternal Throne, till the Most High
For all these unexampled wrongs hath given
Full, overflowing vengeance! (Stevenson 42).

She'r nasroniylarda musulmonlarga nisbatan g'azab va nafrat tuyg'ularini uyg'otadi, qasos va'da qiladi. Shunday qilib, mazkur she'riy doston Islom va musulmonlarga qarshi dushmanlik tuyg'ularini uyg'otadi, deyish mumkin.

Tahlil va natijalar. Lord Bayron, shubhasiz, XIX asrning eng muhim sharqshunos shoirlaridan biridir. Bayronning 1809-yildan 1811-yilgacha bo'lgan Turkiya, Albaniya va Gretsiyaga qilgan safarlari, uning "Grand Tour" deb nomlangan sayohatining bir qismi edi. Ushbu sayohat davomida Bayron ko'plab masjidlar va tarixiy joylarga tashrif buyurgan. Bu sayohat uning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatdi, chunki o'sha davrda turk madaniyati unga ancha taassurot qoldirgan. Gretsiya va Albaniya Yevropa va Islom madaniyatlarining o'zaro o'xshash va ziddiyatli tomonlarini o'zida aks ettirgan hududlar edi.

Bayron hayoti davomida sharqshunos she'rlar yozishi bilan nafaqat Britaniyada, balki butun Yevropada katta obro'-e'tibor qozondi. Ammo, uning Sharqni tasvirlashi ko'plab tanqidchilar tomonidan noto'g'ri, g'arazli va salbiy tarzda qabul qilindi. Bayronning Sharq haqidagi she'riyatidagi tasvirlar murosaga emas,

balki madaniyatlar va dinlar to'qnashuviga qaratilgan edi, bu esa uning asarlarida diniy bag'rikenglikni cheklab, turli xalqlar o'rtasida dushmanlikni keltirib chiqargan.

1813-yilda Lord Bayronning o'sha davrning eng ta'sirli she'rlaridan biri bo'lgan "Giaour" asari nashr etildi. Ushbu she'r, "Turk ertagidan bir parcha" deb nomlangan bo'lib, o'zida sharqshunoslik va musulmon dunyosiga nisbatan salbiy tasvirlarni mujassamlashtiradi. "Giaour" so'zi, hozirgi turk tilida "Gavur" (kofir) degan ma'noni anglatadi va arabcha "kufr" (kofir) so'ziga o'xshaydi, ya'ni Islomni inkor etgan yoki ishonmaydigan kishini anglatadi. Bu so'z orqali Bayron Sharqni va uning diniy tizimini aniq va ochiq tasvirlashga intilgan.

"Giaour" she'rida Bayron Usmonli imperiyasi va uning Yevropa davlatlari, xususan, Gretsiya va Kipr bilan bo'lgan urushlarini hikoya qiladi. 1362-yilda Usmonli imperiyasi o'zini musulmon xalifaligi sifatida e'lon qilganidan keyin, imperiya 1924-yilgacha, ya'ni olti asr davomida Sharq va Yevropaning bir qismida hukmronlik qilgan. Bu davrda imperiyaning kengayishi nafaqat Yevropa davlatlarini xavotirga solgan, balki musulmonlar tomonidan boshqariladigan hududlarning kengayishi ba'zi xalqlar uchun tahdidga aylangan. Usmonli imperiyasining tarixi va kengayishi Bayronning she'rida asosiy ziddiyatli muammo sifatida aks etadi, chunki u imperiya tomonidan bosib olingan hududlardagi musulmonlarni jinoyatchi va yovuz sifatida tasvirlaydi. Bayronning "Giaour" asaridagi Sharqqa nisbatan nohaq munosabat va salbiy qarashlari, boshqa ko'plab shaharshunoslar singari, tarixni afsona bilan uyg'unlashtirishga urinishlaridir. [4;59]

She'rda, Bayron, Hasan Poshoning haramidagi Leyla nomli ayolning fojiali hikoyasini tasvirlaydi. Leyla, ko'pxotinli erkakning xotinlaridan biri sifatida ifodalangan bo'lib, u Yevropalik musulmon bo'lmagan Giaourga oshiq bo'ladi. Ramazon kechalaridan birida, Leyla Giaour bilan qochib ketadi, ammo Hasan tomonidan ushlanib, jazoga tortiladi va dengizga cho'ktiriladi. Bayronning so'zlariga ko'ra, Turkiyada (musulmon dunyosida) zinoda aybdor deb topilgan har qanday musulmon ayolga bu kabi jazo berilishi an'anaviy hisoblanadi. She'rda shuningdek, Leylaning o'z dushmani bo'lgan Hasan Poshaga xiyonat qilishining natijasida qochish va jazolanishi ko'rsatiladi. Bu, shubhasiz, Bayronning Sharqni va uning ijtimoiy tizimini qanday ko'rsatayotganining bir namunasidir.

Bayronning "Giaour" asarida ayollar, xususan Leyla, past tabaqali, xo'rlangan va oddiy qullar sifatida tasvirlanadi. Bu tasvir o'sha davrning ko'plab she'rlarida uchraydigan bir g'oyaning tasdiqidir: ayollar erkinlikdan mahrum bo'lgan, itoatkor qullar sifatida ko'rsatiladi. Agar ular xato qilsa yoki erkaklarning irodasiga qarshi chiqqan taqdirda, o'lim jazosiga mahkum qilinishi mumkin. Ushbu she'rlar ayollarning zulm va nohaqlikdagi uqubatlarini tasvirlab, ularning huquqlarining cheklanganligini ko'rsatadi.

Biroq, Bayronning "Giaour" asarida Leyla o'zining dushmaniga, ya'ni Hasan Poshaga xiyonat qilganidan so'ng jazolanadi, bu o'z navbatida Bayronning ayollarga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Shu bilan birga, Giaour va Leylaning hikoyasi, ayolning o'zini erkin ifoda eta olishidagi muammolar va Sharqning ijtimoiy tizimidagi ziddiyatlarni yanada yoritib beradi. Bayron, Leylani, turkiy urf-odatlar va sharq madaniyati nuqtayi nazaridan, aynan o'z xiyonati sababli jazolangan ayol sifatida ko'rsatadi.

She was a form of life and light That seen, became a part of sight, And rose, where'er I turn'd mine eye, The morning-star of memory! Yes, love indeed is light from heaven; A spark of that immortal fire With angels shared, by Alla given, To lift from earth our low desire [3;229]

Leyladan qasos olish uchun Giaour Hasanni o'ldiradi. Aybdorlik va pushaymonlik tuyg'usiga ega bo'lgan Giaour qutqarish uchun monastirga murojaat qiladi. "Giaour" ni o'qish davomida o'quvchilar har bir qahramon haqidagi haqiqatni topadilar. Muhimi, shuning uchun o'quvchilar she'rni davom ettirishlari bilanoq, ulardan bir nechta muhim savollarni berishlari kutiladi, ular orasida, albatta, kim haqiqatan ham giaour? Hasan, shahvoniy, qasoskor, qonxo'r musulmon yoki she'rning (olijanob, yevropalik) Giauri, u o'zining sevimli Laylosining nohaq o'ldirilgani uchun qasos olib, olijanob va sodiqlik bilan harakat qiladi va oxir-oqibat gunohlaridan qutulish uchun monastirga murojaat qiladimi?

*I loved her, Friar! Nay, adored --
But these are words that all can use --
I proved it more in deed than word;
There's blood upon that dinted sword,
A stain its steel can never lose:
'Twas shed for her, who died for me,
It warm'd the heart of one abhorr'd:
Nay, start not -- no -- nor bend thy knee,
Nor midst my sins such act record;
Thou wilt absolve me from the deed,
For he was hostile to thy creed:
The very name of Nazarene*

Was wormwood to his Paynim spleen [3;226]

Leylaning o'ldirilishi jinoyat, Hasanning o'ldirilishi esa ezgu ish sifatida ko'riladi. Hasanni an'anaviy islom madaniyati vakili sifatida tasavvur qilish mumkin. U Turkiyani, Hasan tomonidan o'ldirilgan ayol Gretsiyani, Giaur esa butun Evropaning razi sifatida talqin qilinadi. Turkiya-Gretsiya urushi o'sha davrda muhim siyosiy masalalardan biri edi. O'sha davrdagi ingliz shoirlarining aksariyati Gretsiyani qo'llab-quvvatlagan. Bayron Gretsiyaning Turkiya hukmronligi ostida bo'lishi haqidagi g'oya bilan juda band bo'lgan va bu mavzu uning bir qator she'rlarida markaziy o'rin tutgan.

Ingliz shoiri P. B. Shelli, garchi ateist bo'lsa-da, ijtimoiy va diniy e'tiqodlarni o'ziga xos tarzda yoritishi bilan tanilgan. Uning "Islom qo'zg'oloni" (1818) asari bu borada aniq bir misoldir. Shelli dastlab asarni "Laon va Cythna" nomi ostida yozgan, ammo 1817-yilda uni nashriyotga yuborishdan oldin qaytarib olib, uning nomini "Islom qo'zg'oloni" deb o'zgartirgan. Islom so'zi sarlavhaga qo'shilishi muallif va nashriyot tomonidan alohida imtiyoz sifatida qabul qilingan, garchi bu sarlavha she'rning mazmunini to'liq aks ettirmasa ham. Bu hol, o'sha davrda Islom va musulmonlar haqida yozishning urf bo'lib qolganligini ko'rsatadi. Asar faqat bilvosita Turkiya-Gretsiya urushiga bag'ishlangan bo'lib, Islomni tasvirlashda muallif o'zining diniy qarashlarini yashirgan.

Shellining "*Hellasga* muqaddima" asari Islom va musulmonlarni masxara qiluvchi davrning yana bir she'riy dramasi sifatida qaraladi. Shoirga o'sha davrdagi ba'zi shoirlar va noshirlar Turkiya va Gretsiya o'rtasida davom etayotgan urush haqida she'r yozishni tavsiya qilishgan edi. Shu tavsiyalar natijasida Shelli ushbu asarni yaratdi. She'r 1821-yilda Italiyaning Piza shahrida yozilib, 1822-yilda Angliyaga nashr etish uchun yuborildi. Shoir o'zi ajablanib, she'r nashr etilishi bilan katta tanqidga uchraganini ta'kidladi va "[u] yagona 'echki qo'shig'i'" sifatida baholandi.[2;38]

Shoir she'r so'zida yunonlar "turk zolim"ga qarshi urushda ko'rsatgan jasorat va qo'rqmaslik haqida fikr yuritib, bu urushda Yunonistonni qo'llab-quvvatlash butun Yevropaning burchi ekanligini ta'kidlaydi; u salib yurishlari paytida da'vo qilinganiga o'xshash "muqaddas ittifoq" ga chaqiradi. U hatto "Biz hammamiz yunonlarmiz. Bizning qonunlarimiz, adabiyotimiz, dinimiz va san'atimiz Yunonistonda ildiz otgan" deya ta'kidlaydi. Shoirning ta'kidlashicha, u yoki bu tarzda turklarga hamdard bo'lish vatanga xiyonat va jinoyatdir, "bir davlat o'z nomiga dog' tushiradigan o'chmas dog'", chunki u "umumiy dushman" deb atagan turklar "xalqning dushmani"dir.

Yarim oy islomni anglatadi; Musulmonlar oy taqvimiga amal qilishadi. Yarim oyni to'ldirish, dunyoni zabt etish va butun yer yuzida islom dinini yoyish demakdir, shunda yarim oy to'lin oyga aylanadi. Bu, shoirning fikricha, islomning dunyodagi umumiy hukmronligini ifodalaydi. Shoir ta'kidlaganidek, musulmonlar nasroniylarni mushrik bo'lganliklari uchun mag'lub etishga va ularni tor-mor etishga da'vat etadilar:

Wake, thou Word
Of God, and from the throne of Destiny
Even to the utmost limit of thy way
May Triumph

... ..

Be thou a curse on them whose creed
Divides and multiplies the most high God (Frowde 550-1).

Shelli Islom va musulmonlarning nasroniylar haqidagi tushunchalarini agressiv dushman sifatida ochib berishga harakat qiladi.

Ushbu maqolada muhokama qilingan she'rlarning aksariyati 1801-1822 yillar oralig'ida nashr etilgan. O'sha davr ingliz adabiyotida bir-biriga o'xshash ayrim umumiy jihatlar mavjudligi tashqi tomondan seziladi. Darhaqiqat, ingliz shoirlari o'zaro o'xshash tarzda Sharq haqidagi she'rlarni yozish intilishgan va bu jarayonning natijasida Islom va musulmonlarga nisbatan ko'plab buzilgan tasavvurlar paydo bo'lgan. Ingliz sharqshunos she'riyatining shakllanishi, asosan, islom va musulmonlar haqidagi noto'g'ri ma'lumotlar, asossiz ayblovlar va stereotiplarga asoslanadi. Bu o'z navbatida Sharq va G'arb o'rtasida hal etib bo'lmaydigan tafovutlar yaratishga hissa qo'shgan. XIX asrda, ko'plab ingliz kitobxonlari, o'sha davr shoirlarining ko'zlari orqali Islom madaniyatini talqin qiishdi. Ularning aksariyati Islom haqidagi tasavvurlarini, haqiqiy tajribaga ega bo'lmasdan, o'qish yoki boshqa adabiyot namunalariidan, masalan, Marlanning "Buyuk Tamburlaine" asaridan olingan ma'lumotlar asosida shakllantirgan.

Xulosa va takliflar. Sauti, Bayron, Shelli, Kolerij va boshqa davr shoirlarining sharqshunos she'riyatida bir qator umumiy xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlar, asosan, musulmon erkaklar va ayollarning kamsituvchi tarzda tasvirlanishi, nasroniy evropaliklar esa, qahramon sifatida, mazlum ayollarni ozod qilish va yovuz musulmonlarni mag'lub etish uchun kurashishga tayyor, olijanob shaxslar sifatida tasvirlanadi. Islom

LITERARY CRITICISM

esa ko‘pincha xurofotga asoslangan din sifatida taqdim etilib, musulmonlar aqlsiz odamlar, yolg‘onchilar sifatida ko‘rsatilgan.

Shunday qilib, XIX asr ingliz adabiyotida Islomning xurofiy va yolg‘on aqidalariga asoslangan, musulmonlarni esa madaniyati past va jaholatga botgan xalq sifatida tasvirlash tendensiyasi kuchaygan. Bu esa, Sharq haqidagi umumiy tasavvurlarni yanada buzib, uning haqiqiy mohiyatini noto‘g‘ri ko‘rsatishga olib kelgan.

ADABIYOTLAR:

1. **Byron, G. (1813).** *The Giaour and Other Poems.* London: Thomas Davison.
2. *Delphi Classics.* Percy Bysshe Shelley: *Complete Works.* Sussex, 2013.
3. Galt, John. *The Complete Works of Lord Byron.* Paris: Baudry's European Library, 1973.
4. "Giaour." *The American Heritage College Dictionary. Third Edition.* New York: Houghton Mifflin Company, 1993.
5. Shelley, P. B. (1818). *Alastor, or The Spirit of Solitude.* London: Baldwin, Cradock, and Joy.
6. Said, E. (1978). *Orientalism.* New York: Pantheon Books.
7. Stevenson, Allan H. *A Study of the Roderick Legend in English Poetry by Scott, Landor and Southey.* 1926. Texas: Houston. M. A. Dissertation.